

KONSTITUTSIYA: MILLIY TARAQQIYOTNING ASOSIY QONUNI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992 yilda qabul qilinganidan buyon, mamlakatimizda demokratik qadriyatlar va huquqiy davlatni shakllantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Konstitutsiya, nafaqat davlatning asosiy qonuni sifatida, balki xalqimizning erkinligi, tengligi va adolati uchun muhim kafolat sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo'lmish parlament a'zolari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o'laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida — to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan qabul qilindi. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o'zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi.

Yangi O'zbekiston barcha sohalarda bo'lgani kabi sud-huquq tizimida ham o'ziga xos islohotlar yo'lidan bormoqda. Har bir sohada adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, inson qadrini yuksaltirish, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud tizimida odillik va shaffoflik mezonlarini yanada mustahkamlash - amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan eng asosiy maqsadlardan sanaladi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, «Mustaqil va kuchli sud hokimiyyati inson huquqlari, demokratiya va qonuniylikni qaror toptirishning asosiy shartidir».

Yangi tahrirdagi Konstitutsianing XXIII bobi "Sud hokimiyyati" deb nomlanib, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 137, 138, 139, 140-moddalarni o'z ichiga oladi va ushbu moddalarda odil sudlovni amalga oshirish jarayonidagi barcha huquqiy sharhlar mujassamlashgan. Shuningdek, XXIV bob advokatura faoliyatiga oid 141, 142-moddalardan tarkib topgan.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud-huquq tizimini chuqr isloh etish va inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta ko'rib chiqilib, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsipi, insонparvarlik g'oyalalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu bevosita barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, jinoyat uchun jazo muqarrarligi tamoyilini bevosita mustahkamlaydi. Demokratik jamiyatda sud davlat hokimiyatining to'laqonli teng huquqli sub'ektidir. Bu boradagi O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish vakolatlarini kuchaytirish, zaruratidan kelib chiqib davlat organi va mansabdar shaxslarning faoliyatini ustidan samarali sud faoliyatini o'rnatish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish vazifasi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud alohida hokimiyat, sud hokimiyyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiylardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo'y sunadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orgali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Oliy sud matbuot xizmatining bergen ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil

1 maydan 2024 yil 1 noyabrga qadar sudlar tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsianing normalarini qo'llash jarayonidagi statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi.

2023 yil 1 maydan 2024 yil 1 noyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llagan holda 182 219 ta ish ko'rib chiqilgan. Bu raqamlar, 1 / 2 Konstitutsianing amaldagi huquqiy tizimimizdagi ahamiyatini va uning asosida sud organlarining faoliyatini ko'rsatadi. Ushbu ishlarning tahlili quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- 34 626 ta jinoiy ish va materiali: Bu ko'rsatkich, jinoiy adliya tizimida Konstitutsiya normalarining ahamiyatini ko'rsatadi. Jinoiy ishlar bo'yicha sudlar, inson huquqlarini himoya qilish vaadolatni ta'minlashda Konstitutsiyaning asosiy tamoyillariga amal qilishi lozim.
- 63 328 ta ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish va materiali: Ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ishlar, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiya, fuqarolarni ma'muriy tahdidlardan himoya qilishda asosiy qonun sifatida xizmat qiladi.
- 34 429 ta fuqaro ish: Fuqarolik ishlarida Konstitutsiya normalarining qo'llanilishi, fuqarolar o'rta sidagi munosabatlarni tartibga solish va ularning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.
- 39 448 ta iqtisodiy ish: Iqtisodiy munosabatlarda ham Konstitutsiya normalari muhim ahamiyatga ega. U iqtisodiy erkinliklarni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishda asosiy tamoyil hisoblanadi.
- Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 10 388 ta ma'muriy ish: Ommaviy-huquqiy munosabatlarda Konstitutsiyaning qo'llanilishi, jamiyatda tartibni saqlash va fuqarolar o'rta sidadaadolatni ta'minlashda muhimdir.

Sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi, mamlakatimizda huquqiy demokratik tizimni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, fuqarolrimizning huquq va erkinliklarini himoya qilishda, shuningdek, milliy taraqqiyot yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Konstitutsiyaning amaldagi huquqiy tizimdag'i o'rni juda muhimdir. Sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarining qo'llanilishi,adolatni ta'minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. 2023 yil 1 maydan 2024 yil 1 noyabrgacha O'zbekiston Respublikasi sndlari tomonidan ko'rib chiqilgan 182 219 ta ishning har birida Konstitutsiya normalarining qo'llanilishi, sud amaliyotining sifatini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, nafaqat davlatning asosiy qonuni, balki jamiyatimizdag'i barcha sohalardaadolat, tenglik va erkinlikni ta'minlovchi kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Uning normalarini to'g'ri va samarali qo'llash esa, milliy taraqqiyotimizning kalitidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy taraqqiyotning asosiy qonuni sifatida davlatimizning huquqiy tizimini mustahkamlashda va fuqarolrimizning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Uning normalarini to'g'ri va samarali qo'llash esa, jamiyatimizdaadolat va tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, Konstitutsiyani o'rganish va uning tamoyillarini hayotimizga tatbiq etish har bir yurist va fuqaroning burchidir.

Farg'ona viloyat sudsining sudya katta yordamchisi Z.Raxmanova

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2024-12-02 18:08:11